

## **MINTAQA AGLOMERATSIYASINI STRATEGIK REJALASHTIRISH VA OPTIMAL JOYLASHTIRISH TAHLILI**

**Xidoyatova Nigora Shorakibovna**

**Qarshi xalqaro universiteti**

**“Iqtisodiyot va muhandislik” kafedrası**

**katta o‘qituvchisi**

**[xidoyatovaanigora@gmail.com](mailto:xidoyatovaanigora@gmail.com)**

**ORCID: 0009-0006-2446-6720**

### **Annotatsiya**

Ushbu tezisda mintaqa aglomeratsiyasini strategik rejalashtirish va optimal joylashtirish masalalari ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda aglomeratsiyani zamonaviy boshqarishning konseptual tamoyillari — tizimli va integral yondashuv, polisentrlikni hisobga olish, kompleks ssenariyli tahlil, katta ma‘lumotlarga tayangan boshqaruv, raqamli modellashtirish hamda monitoring va natijadorlik indikatorlari orqali nazorat qilish mexanizmlari asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** mintaqa aglomeratsiyasi, strategik rejalashtirish, optimal joylashtirish, polisentrlik, fazoviy model, hududiy boshqaruv, transport infratuzilmasi, TOD (transitga yo‘naltirilgan zichlashtirish), raqamli modellashtirish

### **Kirish**

Hozirgi davrda dunyo miqyosida urbanizatsiya va iqtisodiy faollikning yirik markazlarda jamlanishi mintaqa aglomeratsiyalarini shakllantirish va ularni samarali boshqarishni strategik zaruratga aylantirmoqda. Aglomeratsiya endilikda faqat shahar va uning atrofidagi hududlar yig‘indisi emas, balki iqtisodiyot, infratuzilma, ijtimoiy soha, ekologiya, boshqaruv va raqamli xizmatlar bir-biriga uzviy bog‘langan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli aglomeratsiya rivojlanishini rejalashtirishda “alohida loyihalar” yondashuvidan ko‘ra, turar-joy, transport, mehnat bozori, ekologiya hamda raqamli tarmoqlarni yagona majmua sifatida ko‘radigan integral rejalashtirish ustun ahamiyat kasb etadi.

## **ANALYSIS OF STRATEGIC PLANNING AND OPTIMAL SPATIAL ALLOCATION OF REGIONAL AGGLOMERATIONS**

**Xidoyatova Nigora Shorakibovna**

**Karshi International University**

**Senior Lecturer, Department of “Economics and Engineering”**

**[xidoyatovaanigora@gmail.com](mailto:xidoyatovaanigora@gmail.com)**

**ORCID: 0009-0006-2446-6720**

### **Abstract**

This thesis analyzes strategic planning and optimal spatial placement of regional agglomerations based on advanced international experience. The study substantiates key conceptual principles of modern agglomeration governance, including a systemic and integrated approach, consideration of polycentric development, scenario-based analysis, data-driven decision-making, digital modeling, and performance monitoring through measurable indicators.

**Keywords:** regional agglomeration, strategic planning, optimal spatial placement, polycentricity, spatial model, territorial governance, transport infrastructure

### **Introduction**

In recent years, rapid urbanization and the concentration of economic activity in major urban centers have made the formation and effective governance of regional agglomerations a strategic necessity worldwide. Today, an agglomeration is not merely a combination of a core city and surrounding settlements; it represents a complex system in which the economy, infrastructure, social services, environment, governance, and digital networks interact in an integrated and dynamic manner. Therefore, modern agglomeration development requires an approach that goes beyond isolated projects and instead applies comprehensive planning that links housing, transport, labor markets, environmental management, and digital services into a unified territorial system.

Ko‘plab mamlakatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, aglomeratsiyalar va ularning sinergetik ta‘siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Turli tadqiqotchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va aglomeratsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda

aglomeratsiyalarning iqtisodiy foydasini baholash uchun har xil usullarni taklif qilishgan.<sup>1</sup>

O'tgan davr tajribasi va hozirgi davr imkoniyatlarini hisobga olib aglomeratsiya fikrlashning asosiy tamoyillarini quyidagicha tavsiflash mumkin<sup>2</sup>:

1. Tizimli yondashuv. Aglomeratsiya — bu yagona “metabolizm”ga ega murakkab tizim: iqtisodiyot, infratuzilma, ijtimoiy soha, ekologiya, boshqaruv va raqamli platformalar o'zaro bog'liqlikda amal qiladi. Bugun bu tizimni real vaqt rejimida kuzatish va natijalarni doimiy nazorat qilish asosida boshqarish talab qilinadi.

2. Integral yondashuv. Uy-joy, transport, mehnat bozori, ekologiya va raqamli xizmatlar bir-biriga bog'langan dastur sifatida ko'riladi. Masalan, yo'l loyihasi bilan birga maktab, poliklinika va boshqa xizmatlar, raqamli-yuqori o'tkazuvchanlikka ega quvvatdagi tarmoq (internet) va ijtimoiy himoya mexanizmlarini yagona majmuada rejalashtiriladi.

3. Masshtabni hisobga olish. Qarorlar polisentrlikni (bir nechta markazlar) va “kunlik qatnov–uy-joy–ish joyi” oqimlarini qamrab oladi. Bu yondashuvda mintaqalararo bog'lanishning (temir yo'l, logistika, energetika) butun hududga ta'sirni optimallashtiradi.

4. Kompleks tahlil. Zamonaviy tahlil ko'p ssenariyli bo'lishi maqsadga muvofiq. Aytaylik, iqlim sharoiti, demografik tarkib, iqtisodiy tuzilma, ijtimoiy xavflar va tarmoqlararo ta'sirlar bir vaqtning o'zida baholanadi.

5. Katta ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv Bunda boshqaruv qarorlari geoma'lumot, mobilitet ma'lumotlari, ma'muriy registrlar va halqdan olinadigan ma'lumotlar birlashtirilgan data-platformaga tayanadi.

6. Raqamli modellashtirish. Shahar aglomeratsiyasi uchun transport oqimlari, gaz, suv va elektr ta'minoti tarmoqlari, favqulodda holat ssenariylari hamda investitsion loyihalarining “nima bo'lsa?” taxminiy ssenariylari modeli yaratiladi. Natijada xatoliklarni arzon “virtual” holatda tasavvurlash va choralar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

7. Iqlim barqarorligi va moslashuvchanlik. Issiq to'lqinlar, suv ta'minoti, chang bo'ronlari, sel-suv toshqinlari kabi xatarlar uchun moslashuv rejasi ishlab chiqiladi. Masalan, yashil infratuzilma, suv tejoychi texnologiyalar yoki issiqlikka chidamli dizayn loyihalar bunday muammolarga yaxshi yechim bo'lishi mumkin.

8. Moslashuvchanlik va muqobil zaxira quvvatlar. Bitta ta'minotga bog'lanib qolmaslik uchun muqobil transport yo'nalishlari, zaxira elektr manbalari, ta'minot zanjirlarining diversifikatsiyasi ishlab chiqiladi.

<sup>1</sup> Barry F., Görg H., Strobl E. Foreign direct investment, agglomerations, and demonstration effects: An empirical investigation //Review of world economics. – 2003. – T. 139. – S. 583-600.

<sup>2</sup> Muallif yondashuvi bilan boyitilgan

9. Inklyuzivlik va adolat. Past daromadli, chekka hududlardagi aholi guruhlari uchun yaqin masofada ta'lim, tibbiyot, transport va boshqa xizmatlarni tashkil etish.

10. Ko'p darajali va qo'shma boshqaruv. Viloyat, shahar, tuman, xususiy sektor va boshqa institutsional tuzilmalar bilan hamkorlikda kelishuvli boshqaruv tashkil etiladi.

11. Innovatsion ekotizim. Bunda innovatsiyalarning paydo bo'lishi va ishga tushishi uchun kerak bo'lgan hamkorlik muhiti. Unda barcha "zanjir" bo'g'inlari birga ishlaydi. Masalan, universitet va institutlar — ilmiy g'oya va tadqiqot natijalarini beradi, startaplar — g'oyani tezlikda prototipga aylantiradi, kichik va o'rta biznes — mahsulotni ishlab chiqaradi va sotadi. Texnoparklar — jihoz, laboratoriya, mentorlik va huquqiy-texnik yordam beradi. Kollejlar — aniq amaliy kasb ko'nikmalariga ega mutaxassislarni tayyorlaydi.

12. Mobillik va bog'liqlik. Bunda odamlar va yuklarning **tez, qulay, xavfsiz va arzon** harakatlanishi uchun **bir nechta transport turlarini bir zanjirga** ulash ko'zda tutiladi. Maqsad — ko'proq yo'lak qurish emas, **odamning "eshikdan-eshikkacha" borish vaqtini** kamaytirish ko'zda tutiladi.

13. Yer va uy-joy siyosati. Yer maydonlaridan ko'p maqsadli foydalanishni tashkil qilish. Aytaylik, bir binoning pastki qavatini do'kon, kafe, maishiy xizmat, yuqorisi turar-joy, bolalar bog'chasi bo'lishi mumkin. Natijada tirbandlik kamayadi, xizmatlardan foydalanish xarajatlari tejaladi va yaqinlashadi. Shu bilan birga, zichlashtirish ham e'tiborga loyiq masala. Infratuzilma bor joyda binolarning qavatlarini ko'paytirish maqsadga muvofiq. Bunda uy-joy taklifi oshib, narxi arzonlashadi.

14. Doiraviy iqtisodiyot va resurs samaradorligi. Chiqindidan resurs sifatida foydalanish, qayta foydalanish, energiya tejamkorligi kabilar e'tiborga olinadi.

15. Fiskal barqarorlik va optimal moliyalashtirish, loyiha-daromadlarini hayotiy sikl bo'yicha hisoblash ("g'ilofdan chiqish" riski) amalga oshiriladi.

16. Jamiyat sog'ligi, xavfsizligi va urban sog'lom muhit – piyodalar va velosipedlar yurish yo'laklari, havo sifati monitorlari, yo'l xavfsizligi ecotizimlarini qo'llash.

17. Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik ta'minoti. Bunda smart-shahar sensorlari va fuqaro ma'lumotlari uchun kiberxavfsizlik tizimlari yo'lga qo'yiladi.

18. Mintaqalararo sinergiya va iqtisodiy hamkorlik. Viloyatda ichki va qo'shni viloyatlar bilan kooperatsiya koridorlari, eksport-logistika klasterlarining umumjamiyat hayoti bilan integratsiyasi ko'zda tutiladi.

19. Ssenariy-rejalashtirish. Noaniqlik sharoitida ehtimolligi yuqori bo'lgan loyihalarga bosqichma-bosqich investitsiya kiritish.

20. Monitoring va natijadorlik. Har bir tamoyil uchun o'lchovlar: ish joylari zichligi, borish vaqti indeksleri, uy-joy arzonligi, sanoat korxonalarida mahsuldorlikning o'sishi, suv yo'qotishlari, havoning ifloslanish darajasi, ijtimoiy xizmatlar qamrovi, ochiq ma'lumotlar sifati kabi ko'rsatgichlar muntazam nazoratda bo'ladi.

Tadqiqotlarimiz natijasida to'plagan ma'lumotlarimiz asosida rivojlangan mamlakatlarda aglomeratsiya jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlarini jadval №2.1.1da keltirdik. Har bir mamlakatdagi o'ziga xoslikni e'tiborga olindi. Eng rivojlangan mamlakatlarning yirik aglomeratsiyalaridagi fazoviy tuzilma, boshqaruv, transport, yer-uy-joy siyosati va ekologik yondashuvlar ko'rib chiqildi. Jumladan, Fransiyada Ile-de-France (Grand Paris) aglomeratsiya siyosati kuchli davlat boshqaruvi va mintaqaviy koordinatsiyaga asoslanadi.

**Rivojlangan mamlakatlarda aglomeratsiya jarayonining taqqoslama tahlili<sup>3</sup>**

<b>Mamlakat aglomeratsiyasi</b>	<b>Fazoviy model</b>	<b>Rejalashtirish va boshqaruv tizimi</b>	<b>Transport tayanchi</b>	<b>Yer-uy-joy va zichlik siyosati</b>	<b>“Yashil” komponent</b>	<b>Muammo va yechim</b>
<b>Fransiya – Ile-de-France (Grand Paris)</b>	Polisentrik: markaz (Parij)	Kuchli mintaqaviy rejalashtirish va davlat koordinatsiyasi	RER/Metro + Grand Paris Express, Park&Ride, velosiped infratuzilmasi	Transitga yo'naltirilgan zichlashtirish (TOD), aralash zonalash	Qishloq va o'rmon hududlarini himoya qilish, yashil yo'laklar	Uy-joy zichligi bosimi - davlat rejalashtirishi samarali koordinatsiya beradi
<b>Buyuk Britaniya – Greater London</b>	Polisentrik (Town Centre Network)	London Plan, TfL va munisipal hamkorlik	Underground/Overground /National Rail, avtobus, piyoda-velosiped	Green Belt saqlanishi, bo'sh hududlarni qayta rivojlantirish	Shahar atrofi qayta tabiiylashtirish, bog'lar tarmog'i	Uy-joy yetishmasligi va narxlar – Green Belt tizimi bilan muvozanat ta'minlanadi
<b>Germaniya – Berlin / Myunxen</b>	Polisentrik va halqali tizimlar	Kuchli shahar-huquqiy qat'iylik	S-Bahn/U-Bahn, tramvay/avtobus integratsiyasi	Ijtimoiy va bozor uy-joy kombinatsiyasi, zichlikni boshqarish	Yashil kamar va ekologik koridorlar	Ish joylarini tarqatilishi bilan aglomeratsiya bosimini yumshatiladi
<b>Niderlandiya – Randstad (Ring City)</b>	Tarqoq-konsentratsiya (halqali)	Milliy fazoviy strategiya	Tezkor temir yo'l + velotarmoq, intermodal tugunlar	Ixcham rivojlanish, aralash foydalanish, qat'iy zonalash	Groene Hart himoyasi, suv-landshaft boshqaruvi	Landshaftni saqlash bilan bir vaqtda o'sish uyg'unlashtiriladi
<b>Yaponiya – Tokio–Yokohama</b>	Mega-polisentrik stansiya tugunlari	Bozor + davlat uyg'unligi	Yuqori chastotali temir yo'l, jamoat transporti tugunlari	Juda yuqori zichlik, aralash funksiyalar	Ko'p cho'ntak bog'lar, resursga mos ekologiya	Qarish, seysmik xavf - rail-oriented modelini qo'llash bilan samarali yumshatiladi
<b>Kanada – Metro Vancouver</b>	Polisentrik (Regional Town Centres)	Metropolitan rejalar (RGS/LRSP), munisipal hamkorlik	SkyTrain + tezkor avtobus tizimi, piyoda-velosiped infratuzilmasi	Urban containment to'liq jamoalar	Agricultural Land Reserve bilan dala-ekoni himoyasi	Uy-joy qimmatlashuvi – kontainment tizimi bilan samarali boshqariladi
<b>AQSH – NYC Metro / San-Fransisko Bay Area</b>	Aralash: polisentrik	Fragmentatsiyalashgan boshqaruv	Metro/Commuter rail (NYC), BART/Caltrain (Bay Area) + avto	Hududiy cheklovlari yuqori; Jamoat transporti rivojlanmoqda	Parklar/waterfront qayta tiklash, iqlim moslashuvi	Koordinatsiya va uy-joy hududi — jamoat transporti tugunlarini kuchaytirilishi

<sup>3</sup> Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

Grand Paris Express metro loyihasi orqali polisentrik tuzilma shakllantirilgan. Yashil yo'laklar va qishloq hududlarini saqlash orqali ekologik muvozanat ta'minlanadi.

Bu yerda asosiy muammo – uy-joy narxlarining yuqoriligi va markaz–periferiya tafovutlarda ko'rinadi.

Buyuk Britaniyada London Plan asosida polisentrik tuzilma ishlab chiqilgan. Green Belt shaharlarning atrofga yoyilishni cheklash va tabiiy qishloq landshaftni saqlashni ta'minlaydi, ichkarida esa eski hududlar qayta rivojlantiriladi. Transport tizimi ko'p qatlamli: metro, yerusti poyezdi, avtobus, velosiped va piyoda yo'laklar tashkil etilgan. Asosiy muammo – uy-joylarning yetishmasligi va yuqori narxlar. Yechim sifatida ichki zichlashtirish va jamoat transporti tizimini takomillashtirilmogda.

Germaniyada – Berlin-Myunxen shaharlarida polisentrik va halqali tizimlar ustunlik qiladi. Berlin va Myunxen transporti “S-Bahn” va “U-Bahn”, tramvay va avtobus integratsiyasi orqali samarali ishlaydi. Uy-joy siyosati ijtimoiy va bozor mexanizmlari kombinatsiyasiga asoslanadi. Ish joylarini markazdan uzoqlashtirish orqali aglomeratsiya bosimi yumshatiladi.

Niderlandiyada – Randstad (Ring City): Amsterdam, Gaaga, Rotterdam va Utrextdan iborat halqali polisentrik tizim shakllangan. Milliy fazoviy strategiya va hududiy paktlar orqali hamkorlik ta'minlanadi. Tezkor temir yo'l, velotarmoqlar va intermodal tugunlar transporti aglomeratsiyaning asosiy tayanchi hisoblanadi. Groene Hart (Yashil yurak) tizimi hududning landshaft va ekologiyasini saqlash uchun xizmat qiladi.

Yaponiyada Tokio–Yokohama aglomeratsiyasi Yaponiya tajribasining namunasi hisoblanadi. Rail-oriented modeliga asoslangan, polisentrik stansiya tugunlari asosida shakllangan bu tizim xususiy temiryo'l kompaniyalari va jamoat transporti rivojlanishini rag'batlantiradi. Aqlli transport tizimiga tayangan model yuqori samaradorlik beradi. Yapon aglomeratsiyasi juda yuqori zichlik, aralash funksional va cho'ntak bog'lariga ega. Bu mamlakatda qarish va seysmik xavflar asosiy muammolar sifatida qaraladi.

Kanadada aglomeratsiya Vancouver Metro atrofida polisentrik tizim asosida shakllangan Regional Town Centres modeli hisoblanadi. Urban containment boundary (shahar yoyilishini nazorat qilish uchun belgilangan aniq chiziq (chegara)) shahar yoyilishini cheklaydi. ALR (Agricultural Land Reserve) maxsus tizimi orqali qishloq xo'jaligi yerlari qat'iy himoyalanaadi. Bu yerdagi asosiy muammo – uy-joy narxlarining qimmatlashuvi bo'lib, yechim sifatida “zichlash siyosati” qo'llaniladi.

Dunyoning qudratli davlatlaridan biri AQSHning aglomeratsiyasi – NYC Metro / San-Fransisko Bay Area hududlarida namoyon bo'ladi. AQSHda polisentrik tuzilmalar rivojlangan. NYC metrosi, BART va Caltrain kabi yirik tranzit tizimlari mavjud, biroq ko'plab hududlarda avto-dominant modeli ustunlik qilmoqda. AQSHda parklar va sohil hududlari qayta tiklanmoqda, iqlim moslashuvi siyosati kuchaymoqda. Mamlakatdagi asosiy muammolar – hududlar boshqaruvining bo'linib ketganligi, mintaqaviy koordinatsiya va uy-joy siyosatining yetishmasligidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Основы теории градостроительства: Учеб. Для вузов. / З.Н.Яргина, Я.В.Косицкий, В.В.Владимиров и др. под ред. З.Н.Яргиной. - М.: Стройиздат, 1986. – 326 с.
2. Основы теории градостроительства: Учеб. для вузов. / З.Н.Яргина, Я.В.Косицкий, В.В.Владимиров и др. под ред. З.Н.Яргиной. - М.: Стройиздат, 1986.– 326 с.
3. В.П.Максаковский Географическая картина мира. Пособие для вузов. Кн. I: Общая характеристика мира. Глобальные проблемы человечества / В.П.Максаковский. –Ярославль.: Верхне-Волжское кн. изд-во, 1998. – 496 с.
4. База данных ООН [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://data.un.org>
5. <https://www.citypopulation.de/en/world/agglomerations/>
6. Слука, Н. Глобальные города / Н. Слука // Демоскоп Weekly. – 2010. - № 413-414. Электронная версия бюллетеня. Население и общество Институт демографии Государственного университета - Высшей школы экономики. [Электронный ресурс] –Режим доступа: <http://www.demoscope.ru/weekly/2010/0413/tema01.php>
7. Ильина, И. Мегалополисы: Параметры «управляемой урбанизации» / И. Ильина // URBANmagazine – 2015. – № 02 С. 42-49.
8. <https://tradingeconomics.com/world/urban-population-percent-of-total-wb-data.html>
9. [https://www.citypopulation.de/en/uk/agglo/E34004707A\\_\\_london/?utm](https://www.citypopulation.de/en/uk/agglo/E34004707A__london/?utm)
10. [https://www.citypopulation.de/en/italy/admin/lombardia/015\\_\\_milano/?utm](https://www.citypopulation.de/en/italy/admin/lombardia/015__milano/?utm)
11. <https://www.insee.fr/fr/statistiques/1405599?geo=UU2020-00851&utm>
12. Системный анализ и проблемы развития городов / Ю. С. Попков, М. В. Посохин, А.Э. Гутнов, Б.Л. Шмульян; под. ред. С.В. Емельянова. – М.: Наука, 1983. – 512 с.